


**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SURXONDARYO  
VILOYATINIG SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI  
2024- yil yanvar-fevral  
(dastlabki ma'lumot)**




**Tel.: 76-225-65-76**  
**[www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)**


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 895,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 102,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 32,3 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini tashkil etdi.




yanvar-fevral

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	42,0	58,9	16,9
Neft, ming t.	11,8	12,6	0,8




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	4,5	2,9	-1,6
Chaqiq tosh, ming t.	0,0	5,5	5,5

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-fevral

FHI,% da



2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 803,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,8 % ini tashkil etdi.


2023- yil  
yanvar-fevral

94,4 %

2024- yil  
yanvar-fevral


89,8%






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,00 % ni (2023- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,0 % ( 0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,1% ( 19,5 %) va quyi texnologiyalisi – 64,3 % ( 72,7 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,7 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,1 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,9 %), boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi 9,6 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 135,5 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,4 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi – 5,2 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 58,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,3 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 159,7 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





2024- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,8 ming tonna paxta tolasi (2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 10,9 % ga kam), 1,2 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (39,5 % ga ko'p), 0,4 ming tonna lint (26,4 % ga kam), 6,8 ming tonna neft bitumi (8,5 % ga kam) ishlab chiqarilib, o'sish sur'atlari kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	3,1	2,8	-0,3
Paxta tiviti (lint), ming t.	0,7	0,4	-0,3
Neft bitumi, ming t.	7,5	6,8	0,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	13,8	6,8	7,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,5	0,6	0,1




### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 129,4 bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa, 152,2 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 8,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 135,5 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 85,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksiesha 81,5 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 128,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 42,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 83,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 101,6 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 371,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 %, fizik hajm indeksi 99,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 38,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 457,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 16,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 85,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi 58,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 46,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 220,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 101,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ini) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 132,3 % ga ko'payganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2,9	22,5	19,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8,2	4,2	-4,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ini) tashkil etdi.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	0,04	1,4	1,36
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	4,9	8,2	3,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 11,5 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,4 mlrd. so'm shuningdek, 8,2 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.